

This is not registered version of TotalDocConverter

Bismillahir-Rahmanir-Rahim
Ey charx, ne davrlarki dast etting, Davringda muhabbat ahlini mast etting, Har kimniki, olamda zabardast etting, Oxir ajal ilgida ani past etting. Tariq fanosida mufarrad va fano tariqida mujarrad, jahondag'i pahlavonlarning pahlavoni jahoni va pahlavonlig' jahonining jahon pahlavoni, surat va ma'nida beshabih va benazir, ya'ni Pahlavon, shamsul-millati vaddin[1] Muhammad Kushtigir[2] siyrat va suratida.

Pahlavonning nasabida sayodat sharafig bor, ammo chun tag'oyisi Pahlavon Abusaid[3]kim, zamonning pahlavon va musallam kushtigiri erkondur va Pahlavon kichik yoshlig' erkonda ul fanda kundan-kunga andin g'aribosor va ajib namudorlar zohir bo'lur erkondir. Andoqki, oz fursatda jami' abnoyi jins borini mag'lub qilib, borig'a foiq va g'olib kelibdur. Chun ro'zgor harunlig'idin va laylu nahor buqalamunlig'idin[4] Pahlavon Busaid hayot vadyatin muqtazoyi ojil[5]g'a topshurubdur. Pahlavon istihqoq bila pahlavonliq sarakiyasiga o'tlurubtur va bu toyifa sarhalqalig'in tav' va rag'bat bila qabul qilibdurlar. Nevchunki ul, agarchi kuch va zabardastlikda zamonning munfaridi erkondur, ammo kushtidonlig' va zabardastlig'da ham andoq ekondur va bu toyifadin bu o'tgan to'rt-besh yuz yil, balki ming yilda aningdek hech yod bermaydur va naql qilmaydur. Bovujudi ulki, o'z fanidaki, kushti bo'lg'aykim, shuhrati ul ism biladur va oncha yakfanliqda va mardum afkanliqda kichik yoshliq erkondurkim, shogird kushtigir erkondur va bu fanda ne varzish qilur erkondur. Chun qobiliyati baland tushgandur va muloyamati tab'i borchha funung'a munosib va bahramand voqe' bo'lg'ondur, ko'p fazonil va kamolot ham kasb qilg'ondurkim, zamon ahli borchada Pahlavonni musallam tutar erdilar.

Ul jumladin advor[6] va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo'b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg'ub. Ul daqiq fanda ko'shish va sa'y ko'rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqsh[7]lar va amal[8]lar va dildisand qavl[9]lar va g'azallar tasnif qilur erdi va xo'b aytur erdi. Andoqki, eshitgan xavos va avom xushhol bo'lmoqda beixtiyor va o'rganmoqda beqaror erdilar.

Ul asrning bu fanda mohirlari misli: Ustod Muhammad Xorazmiy va Mavlono Nu'mon va Mavlono Sohib Balxiy va Shayx Safoyi Samarqandiy va Xoja Yusuf Andijoniy[10]dek kishilarning tasnifoti muqobalasida ishlar yasabdur va naqsh va sufiya va amal va qavl va jir chorzablardek va chun o'zi alarning ko'pidan ham xushgo'yroq va ham xushxon ermish, ishlarining shuhrati ko'proq voqe' bo'lur emish.

Mashhur amallaridan biri "chahorgoh" amalidurki, Mavlono To'tiy[11] (alayha rahma) ning ul she'ridinkim, matlai budur:

Soqiyo, de rafta hastu ahvoli fardo nopadid,

Xeshro imruz xush doremu fardoro ki did?[12]

kim, Mir Buzurg Termiziy[13] otig'a bog'labdurkim, bag'oyat xushoyanda va muloyim eshtilur va dalil bukim, Xuroson mulkida, balki Samarqand va Iroqda hamul ishni bilmas go'yanda yo'qtur, balki g'ayri go'yanda dag'i behad va hasr xaloyiqning yodidatur. Yana "segoh" amalidurkim, Mavlono Xusrav[14]ning she'rig'a bog'labdur va matlai budurkim:

Ey zi tobi orazat sham'e ba har koshonay,

V-ey asiri purxami zulfat dili devonay[15]

kim, Bobur[[16] otig'a bog'labturki, ul dag'i bag'oyat muassir va xushoyanda ishdur. Yana "segoh" amalidurki.

Mavlono Kotibiy[17]ning ul she'ridinkim, matlai budurkim:

Gahiki, tig'i tu dar qatli ahli did baroyad,

Ba yak mushohada maqsudi sar shahid baroyad[18].

Bu ishni bog'lamoqdin g'arazi bu matla' ermishkim:

Manoli Kotibiy az shomi g'am ki subhi saodat

Ba yumni davlati Sulton Abusaid baroyad[19]

kim, Sulton Abusaid mirzo[20] otig'i bog'labdur, nihoyatdin tashqari dildazir ish tushibdir.

Va ulkim, Sultoni Sohibqiron[21] xizmatig'a musharraf bo'ldi, Mashhaddin "saydi g'azol"[22] sho"basida ul humoyun hazratning ismig'a o'zining bu she'rinki:

Onjo ki bar dargahat ro'i niyoz ovardayem,

Ro'i dil dar ka'bai iqbol boz ovardayem[23]